



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN INVESTITSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH

IMPROVING THE FINANCING OF INVESTMENT PROJECTS BY COMMERCIAL BANKS

¹**Yuldashev Fozil Turapovich**

¹*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti*
v.b. professori., PhD. E-mail: yuldashev@mail.ru

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Ushbu maqolada tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonlarini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil etiladi. Shuningdek, tijorat banklarining loyihaviy moliyalashtirishdagi ishtirokini kuchaytirish, kredit portfelining sifatini oshirish va cash-flow asosidagi moliyalashtirish modeliga o'tishni kengaytirish orqali iqtisodiyotning barqaror va innovatsion rivojlanishini ta'minlash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Eng. - In this article, the theoretical and practical aspects of improving the processes of financing investment projects by commercial banks are analyzed. In addition, proposals and recommendations are developed to ensure sustainable and innovative economic development by strengthening the participation of commercial banks in project financing, improving the quality of the loan portfolio, and expanding the transition to a cash flow-based financing model.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banklari, investitsion loyihalar, loyihaviy moliyalashtirish, bank tizimini transformatsiyalash, kredit portfeli, risklarni boshqarish, raqamli bank xizmatlari, sindikatlashgan kreditlar.*

❖ *commercial banks, investment projects, project financing, transformation of the banking system, loan portfolio, risk management, digital banking services, syndicated loans.*

Kirish.

Mamlakat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan chuqur tarkibiy islohotlar tijorat banklarining iqtisodiy tizimdagi o'rnini yanada mustahkamlamoqda. Bugungi kunda tijorat banklari an'anaviy kreditlash funksiyasi bilan cheklanib qolmay, real sektorning investitsion faolligini qo'llab-quvvatlaydigan, iqtisodiy o'sish jarayonlarida muhim moliyaviy vositachi sifatida faoliyat yuritmoqda. Shu sababli investitsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, bank aktivlarini diversifikatsiya qilish, xalqaro standartlarga asoslangan risk-menejment

tizimini joriy etish hamda raqamli moliyaviy texnologiyalardan samarali foydalanishni kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda bank tizimini transformatsiyalash doirasida tijorat banklarining kapitallashuv darajasini oshirish, muammoli aktivlar ulushini qisqartirish, risklarni boshqarishda ilg'or yondashuvlarni joriy etish hamda elektron bank xizmatlarini jadal rivojlantirishga qaratilgan islohotlar investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonining samaradorligiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon amaliyotida keng qo'llanilayotgan project finance, sindikat

kreditlash, cash-flow-based financing, davlat-xususiy sheriklik kabi mexanizmlarni milliy bank tizimiga moslashtirish investitsion muhitni yaxshilash, xatarlarni taqsimlash va uzoq muddatli moliyalashtirishning barqaror manbalarini shakllantirish imkonini beradi.

Biroq fond bozorining yetarli darajada rivojlanmaganligi, uzoq muddatli kapital resurslarining cheklanganligi, investitsion loyihalarning moliyaviy barqarorligini baholashda qo'llaniladigan metodik yondashuvlarning takomillashmaganligi tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi salohiyatidan to'liq foydalanish imkoniyatlarini cheklab kelmoqda. Ushbu holat zamonaviy transformatsion sharoitlarda investitsion loyihalarni moliyalashtirishning samarali, xavfsiz va iqtisodiy jihatdan maqbul mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi bank sektori transformatsiyasi sharoitida investitsion loyihalarni moliyalashtirishning nazariy asoslarini takomillashtirish, tijorat banklarining investitsiya jarayonidagi ishtirokini kuchaytirish, shuningdek, raqamli moliyaviy texnologiyalar asosida innovatsion moliyalashtirish modellarini shakllantirish zaruriyati bilan belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiyotning transformatsiyalashuv sharoitida tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirishning ahamiyati keng yoritilgan. Xususan, F. Mishkinning 2020-yilda chop etilgan yangilangan "The Economics of Money, Banking and Financial Markets" nomli darsligida iqtisodiy transformatsiya jarayonlarida investitsion kreditlarning moliyaviy barqarorlikka ta'siri tahlil qilingan bo'lib, unda kredit bozorining liberallasuvi investitsiyalar oqimini jadallashtirishi bilan birga, kredit risklarining ortish ehtimolini ham kuchaytirishi ta'kidlangan [2].

P. Rose transformatsion iqtisodiyot sharoitida investitsion kreditlash tijorat banklari faoliyatida strategik ustuvor yo'nalish sifatida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, iqtisodiyot modernizatsiyasi sharoitida investitsion loyihalarni moliyalashtirish tijorat banklarining aktivlar portfeli diversifikatsiyasiga va sifatini yaxshilanishiga xizmat qiladi [3].

D. Sachsning 2021-yilda chop etilgan "Economic Development in the Era of Global Transformation" asarida iqtisodiy transformatsiya sharoitida investitsion kreditlarning real sektorni qo'llab-quvvatlashdagi o'rni alohida ta'kidlanib, investitsiyalar oqimini kengaytirish maqsadida bank tizimini isloh qilish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan [4].

Shuningdek, D. Rodrik tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlarda moliya institutlarining, xususan, tijorat banklari orqali taqdim etiladigan investitsion kreditlarning iqtisodiyotdagi "strukturaviy o'zgarishlarni tezlashtiruvchi muhim omil" ekanligi ta'kidlanadi. Unga ko'ra, iqtisodiy o'zgarishlar jarayonidagi mamlakatlar iqtisodiyotida investitsion kreditlar yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi tarmoqlarga yo'naltirilishi zarur [5].

R. Levine o'z tadqiqotlarida moliya tizimining innovatsion rivojlanishdagi rolini tahlil qilib, iqtisodiy transformatsiya sharoitida uzoq muddatli investitsion kreditlar innovatsion jarayonlarning asosiy moliyaviy manbai sifatida shakllanishini ilmiy jihatdan asoslaydi [6].

Mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, "investitsion kredit" tushunchasi bo'yicha turli yondashuvlar mavjud. Ayrim tadqiqotlarda ushbu tushuncha "investitsion bank krediti" sifatida ham qo'llaniladi. Masalan, M.V. Alikaeva, L.O. Aslanova va boshqa rossiyalik olimlar investitsion bank kreditini aniq maqsadli yo'naltiriluvchi, loyiha-smeta hujjatlari asosida beriladigan va odatda bir yildan kam bo'lmagan

muddatga taqdim etiladigan kredit sifatida talqin qiladi [7]. Biroq ushbu yondashuvda kreditning kamida bir yil muddatga berilishi haqidagi fikr munozaralidir, chunki investitsion kreditlarning davomiyligi ko'proq loyihaning qoplash muddatiga bog'liq.

Boshqa adabiyotlarda investitsion kreditlar uzoq muddatli kreditlar sifatida tasniflanib, ularning asosiy kapitalni shakllantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi [8, 9]. Shu bilan birga, uzoq muddatli kreditlarning o'zi ham turlicha talqin qilinadi: ayrim manbalarda ular 3 yil va undan ortiq muddatga taqdim etiladigan kreditlar sifatida belgilanar ekan [10], boshqalarida esa bir yildan yuqori muddatga beriladigan kreditlar sifatida izohlanadi [11].

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahliliga asoslanib, tijorat banklari faoliyati kontekstida "investitsiyalarni moliyalashtirish" tushunchasiga quyidagi takomillashtirilgan ta'rifni berish mumkin:

Investitsiyalarni moliyalashtirish - bu bozor mexanizmlari, risk, vaqt va likvidlik omillaridan kelib chiqib, iqtisodiy samaradorlik yoki ijtimoiy foyda yaratishga qaratilgan investitsiya faoliyati obyektlarini mablag' bilan ta'minlash jarayonidir. Mazkur moliyalashtirish shakli investitsiya loyihalarining texnik-iqtisodiy asoslariga tayangan holda, ularning qoplash muddatiga mos ravishda resurslarni ajratishni nazarda tutadi hamda maqsadli yo'naltirilish, qaytarishlik, muddatlilik, to'lovlik, ta'minlanganlik, samaradorlik va differensial yondashuv tamoyillariga asoslanadi. Ushbu jarayon iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlashning muhim moliyaviy vositasi hisoblanadi. Mazkur ta'rif tijorat banklarining investitsion loyihalarini moliyalashtirishdagi o'rni va funksiyalarini aniqlashtirib, ularni transformatsion sharoitlarda takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda guruhlash, ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy va tarkibiy tahlil, ilmiy prognozlash, iqtisodiy-statistik hamda grafik-tahlil usullari qo'llanilgan. Mazkur usullar tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonlarini chuqur o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi O'RQ-580-sonli "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasiga muvofiq tijorat banklari lizing berish operatsiyalarini amalga oshirish huquqiga ega bo'lib, bu holat investitsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini diversifikatsiya qilish imkonini kengaytiradi [1]. Lizing operatsiyalari orqali asosiy vositalarni bosqichma-bosqich moliyalashtirish korxonalarda modernizatsiya jarayonini tezlashtirish va investitsion xarajatlarni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, "Tijorat banklari tomonidan yirik investitsiya loyihalarini sinditsiyalashtirilgan kreditlashni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq ikki yoki undan ortiq banklar o'rtasidagi o'zaro kelishuv asosida bank sindikati tashkil etilib, yirik va kapital sig'imi yuqori bo'lgan investitsiya loyihalarini birgalikda moliyalashtirish imkonini beradi. Sinditsiyalashtirilgan kreditlash mexanizmi banklar o'rtasida risklarni taqsimlash, kredit portfeli konsentratsiyasini kamaytirish, bir bank resurs bazasi yetarli bo'lmagan loyihalarni amalga oshirishga ko'maklashish hamda investitsiya jarayonining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Loyihaviy moliyalashtirish (project finance) esa milliy bank amaliyotida tobora

keng qo'llanilayotgan zamonaviy moliyalashtirish mexanizmlaridan biridir. Ushbu yondashuv, ayniqsa, loyiha tashabbuskori yoki uning strategik hamkorlari mablag'lari yetarli bo'lmagan yoki investitsion risklar yuqori bo'lgan sharoitlarda dolzarb ahamiyatga ega bo'ladi. Loyihaviy moliyalashtirishda kreditning qaytarilishi loyiha tashabbuskorining balansidagi aktivlarga emas, balki loyiha tomonidan ishlab chiqariladigan kelgusidagi pul oqimlariga (cash-flow) asoslanadi. Bu esa banklar uchun risklarni boshqarishning yanada puxta va noan'anaviy mexanizmlarini qo'llashni talab etadi.

Investitsion loyihalarni kredit liniyalari asosida moliyalashtirish shakli ham tijorat banklari faoliyatida kengayib bormoqda. Kredit (xorijiy) liniyalari odatda xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar, taraqqiyot banklari, investitsiya fondlari, shuningdek, mahalliy moliya institutlari tomonidan tijorat banklariga maqsadli ravishda ajratiladigan resurslar hisoblanadi. Ushbu kredit liniyalari bosqichma-bosqich (multitranshli) moliyalashtirish mexanizmi asosida ishlaydi va yuqori texnologik, innovatsion hamda eksportga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyatga ega.

Mazkur moliyalashtirish shakllarining diversifikatsiyalashuvi tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirishni takomillashtirishda quyidagi afzalliklarni yaratadi:

- yirik va kapital sig'imi yuqori bo'lgan loyihalarni amalga oshirish imkoniyatining kengayishi; risklarni banklar, investorlar va boshqa kreditorlar o'rtasida samarali taqsimlash;

- banklar kredit portfelining barqarorligini oshirish va konsentratsiya darajasini pasaytirish;

- xorijiy moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish orqali uzoq muddatli resurslarga kirish imkonini oshirish;

- loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholashda xalqaro standartlarga mos yondashuvlarni tatbiq etish.

Shu bois, sinditsiyalashgan kreditlash, loyihaviy moliyalashtirish, kredit liniyalari va lizing kabi mexanizmlarning tizimli rivojlantirilishi tijorat banklarining investitsion loyihalarni moliyalashtirish salohiyatini sezilarli darajada oshiradi hamda iqtisodiyotning modernizatsiyasi, innovatsion yangilanishi va barqaror o'sishini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Banklarni transformatsiyalash jarayonida investitsion loyihalarning to'g'ri tasniflanishi va ular bo'yicha samaradorlik ko'rsatkichlarining baholanishi tijorat banklarining investitsion faolligi va strategik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda transformatsiya bosqichida bo'lgan tijorat banklari uchun investitsion faoliyatni baholashda asosiy omillar sifatida banklarning moliyaviy barqarorligi, sarmoya jalb qilish salohiyati hamda investorlar uchun ishonchlilik darajasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari transformatsiya jarayonida raqamli baholash tizimlarini keng qo'llash, risklarni avtomatlashtirilgan modellashtirish va loyiha natijalarini aniq prognozlash kabi ilg'or mexanizmlarni keng joriy etish orqali investitsion jozibadorlikni baholashda muhim ko'rsatkichlardan biri sifatida aktivlarning rentabelligi (ROA)ni hisobga oladi. ROA bankning investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari va portfel samaradorligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri sifatida xizmat qiladi.

Quyida keltiriladigan 1-jadval ma'lumotlari banklarning investitsion loyihalar portfeli samaradorligi, aktivlarning rentabelligi hamda transformatsiya jarayonida amalga oshirilayotgan investitsion faoliyat dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi.

1-jadval

Tijorat banklarining investitsion faoliyati tahlili, mlrd. so'm*

Nº	Banklar nomi	01.01. 2020	01.01. 2021	01.01. 2022	01.01. 2023	01.01. 2024	01.01. 2025
1	"Agrobank" ATB	272,4	1607,8	2378,3	1889,8	1047,0	2 764,70
2	"Milliybank" AJ	783,7	1742,0	2510,0	2726,0	8797,5	9 798,00
3	"Agrobank" AJ	597,7	1295,3	1498,8	2313,7	14004	2 278,90
4	"Ipoteka-bank" OTP	261,9	892,2	1224,1	4046,3	2496,3	4 847,40
5	"Trastbank" XATB	300,7	688,6	1410,4	1413,5	1713,0	2 013,00
6	"Sanoatqurilishbank" ATB	181,9	592,3	1207,2	2894,1	2449,7	5 238,20
7	"Xalq banki" AT	211,9	513,8	3268,1	4150,2	4343,3	8 414,50
	Jami	3 012,2	9 447,8	19 633,8	31 508,1	31 889	57 105,9

*Muallif tadqiqotlari natijasida shakllantirildi.

Yuqorida keltirilgan jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2020-2025-yillar davomida O'zbekiston Respublikasidagi yetakchi tijorat banklarining investitsion faoliyati sezilarli darajada oshgan bo'lib, bu jarayon banklarni transformatsiyalash siyosatining amaliy natijalarini yaqqol aks ettiradi. Banklar tomonidan moliyalashtirilgan investitsion loyihalar hajmining keskin o'sishi, avvalo, investitsion loyihalar tasnifining takomillashuvi, risklarni boshqarishning avtomatlashtirilishi va moliyaviy qarorlarning samaradorlik ko'rsatkichlari asosida qabul qilinayotganini anglatadi.

Ushbu davrda "Milliybank", "Xalq banki", "Sanoatqurilishbank" hamda "Agrobank" kabi yirik banklarda investitsion loyihalar portfelining sezilarli kengayishi kuzatilgan. Bu banklar transformatsiya jarayonida yuqori texnologiyali, innovatsion va raqamli yo'nalishdagi investitsion loyihalarga ustuvorlik bergan. Ayniqsa, 2023-2025-yillarda "Milliybank" va "Xalq banki" ko'rsatkichlarining keskin o'sishi ular tomonidan yirik, uzoq muddatli va tarmoq bo'yicha diversifikatsiyalangan investitsion loyihalarni moliyalashtirish ko'lamining kengayganini ko'rsatadi. Bu loyihalar bank aktivlarining daromadliligini oshirish bilan birga, iqtisodiyotning real sektoriga qo'shilgan qiymatning ortishiga ham xizmat qilgan.

Shu bilan birga, "Ipoteka-bank"ning 2020-2025-yillardagi investitsion o'sishi

asosan infratuzilma, qurilish va uy-joy bozoriga yo'naltirilgan investitsion loyihalarning kengaygani bilan izohlanadi. "Trastbank" hamda "Agrobank"ning o'sish sur'atlari nisbatan barqaror bo'lib, ular ko'proq o'rta hajmli, modernizatsiya va qayta tiklash yo'nalishidagi investitsion loyihalarni moliyalashtirishga e'tibor qaratgan. Jadvalda keltirilgan jami ko'rsatkichlarning 2020-yildagi 3 012,2 mlrd. so'mdan 2025-yilda 57 105,9 mlrd. so'mgacha o'sishi banklar tomonidan moliyalashtirilgan investitsion loyihalar hajmining 19 barobardan ortiq ko'payganini anglatadi. Bunday yuqori o'sish transformatsiya jarayonida investitsion loyihalarning to'g'ri tasniflanishi, moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiya qilinishi, risk darajasiga qarab loyihalarni raqamli baholash tizimlarining joriy etilishi hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarining (NPV, IRR, PI) avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari orqali hisoblanishi natijasidir.

Umuman olganda, jadval ma'lumotlari banklar transformatsiyasida investitsion loyihalar tasnifining to'g'ri shakllantirilishi va samaradorlikka ta'sir etuvchi omillarning tezkor baholanishi orqali tijorat banklarining investitsion jozibadorligi, moliyaviy barqarorligi hamda iqtisodiyotga qo'shayotgan hissasi sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Bu esa bank sektorida transformatsiyaning samarali kechayotganini tasdiqlaydi.

2-jadval

Banklarning investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi roli hamda samaradorligiga ta'sirini takomillashtirish yo'nalishlari*

<i>Ko'rsatkich</i>	<i>Investitsion moliyalashtirishdagi bog'liqlik</i>	<i>Takomillashtirish nuqtai nazaridan izoh</i>
<i>Aktivlar sifati</i>	<i>Moliyalashtirilgan loyihalarning barqarorligi</i>	<i>Yuqori sifatli aktivlar investitsion loyihalar bo'yicha risklarni kamaytiradi va kreditlarning qaytuvchanligini oshiradi</i>
<i>Rentabellik (ROA, ROE)</i>	<i>Investitsion loyihalarning daromadlilik</i>	<i>Rentabelli banklar yirik va innovatsion loyihalarni moliyalashtirishda faolroq bo'ladi, investorlar ishonchi ortadi</i>
<i>Aktivlar aylanishi</i>	<i>Investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi</i>	<i>Faol aylanuvchi aktivlar loyihalar moliyalashtirilishini tezlashtiradi, bankning operatsion samaradorligini oshiradi</i>
<i>Aktivlarning xilma-xilligi</i>	<i>Investitsion portfelni diversifikatsiya qilish</i>	<i>Tarmoqlar bo'yicha diversifikatsiya riskni kamaytiradi va barqaror investitsion portfelni shakllantiradi</i>
<i>Aktivlarning o'sish sur'ati</i>	<i>Bankning investitsion imkoniyatlari kengayishi</i>	<i>O'sish sur'atlarining yuqoriligi ko'proq investitsion loyihalarni moliyalashtirish imkonini yaratadi</i>

*Muallif tadqiqotlari natijasida shakllantirildi.

Aktivlar sifati bankning investitsion loyihalarni moliyalashtirish jarayonidagi moliyaviy barqarorligi va risk darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Yuqori sifatli aktivlar mavjud bo'lgan sharoitda kredit portfelining barqarorligi ta'minlanadi, defolt ehtimoli pasayadi hamda investitsion loyihalarning qaytuvchanlik ko'rsatkichlari oshadi. Shu sababli aktivlar sifatini yaxshilash bankning uzoq muddatli investitsion strategiyalarini samarali amalga oshirishiga imkon yaratadi.

Bank rentabelligi investitsion loyihalarning daromadlilik salohiyatini baholashda muhim ko'rsatkich sanaladi. ROA va ROE ko'rsatkichlarining yuqoriligi bankning moliyaviy barqarorligini mustahkamlab, uning yirik, innovatsion va yuqori rentabelli loyihalarni moliyalashtirishda faol ishtirok etayotganidan dalolat beradi. Bundan tashqari, rentabellikning oshishi investorlar va hamkorlar ishonchining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Aktivlarning aylanish tezligi investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini aks ettiradi. Aktivlar yuqori tezlikda aylanadigan

sharoitda bankning likvidlik darajasi ortib boradi, bu esa investitsion loyihalarni moliyalashtirishni tezkor va uzluksiz amalga oshirish imkonini beradi. Natijada bankning operatsion samaradorligi hamda investitsion oqimlarni boshqarish ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

Aktivlar tarkibining diversifikatsiyalashgan bo'lishi bankning investitsion portfelidagi risklarni kamaytiruvchi muhim omil hisoblanadi. Tarmoqlar, hududlar yoki turli yo'nalishlar bo'yicha diversifikatsiya qilingan aktivlar portfeli investitsion barqarorlikni ta'minlaydi va noaniq iqtisodiy sharoitlarda ham barqaror daromad keltirish imkonini yaratadi. Shu bois aktivlar tarkibini diversifikatsiya qilish bankning investitsion strategiyasini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Aktivlarning o'sish sur'ati bankning investitsion salohiyati va moliyalashtirish imkoniyatlarining kengayishini ifodalaydi. Aktivlar hajmining izchil o'sishi bankning kreditlash quvvatini oshiradi, yangi investitsion loyihalarni jalb qilish hamda

iqtisodiyotning real sektorini qo'llab-quvvatlashga keng sharoit yaratadi. Shu tariqa, aktivlar o'sishi bankning investitsion faoliyati samaradorligining muhim ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

Bank tizimida amalga oshirilayotgan transformatsiya jarayonlari raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, risk-menejment tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, kapitallashuv darajasini oshirish hamda moliya bozorlarini modernizatsiya qilish tijorat banklarining investitsion faoliyatini sezilarli darajada faollashtirmoqda. Ushbu o'zgarishlar natijasida banklar iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtiruvchi eng muhim moliyaviy vositachi sifatidagi o'rnini tobora mustahkamlab bormoqda.

So'nggi yillarda inflyatsiya sur'atlarining nisbatan yuqoriligi, qayta moliyalash stavkasi va kredit foizlarining oshishi, shuningdek, milliy valyuta qadrsizlanishiga qaramay, bank tizimida olib borilgan oqilona siyosat kredit portfelining sifatini saqlab qolishga va 2025-yilga qadar muammoli kreditlar salmog'ini past darajada ushlab turishga imkon berdi. 2019-yil yakuni bo'yicha tijorat banklari kreditlarining 91,5 foizini uzoq muddatli kreditlar tashkil etgani banklarning real sektor investitsion ehtiyojlariga faol xizmat qilayotganidan dalolat beradi.

Investitsion kreditlar bozorida "Agrobank" va "Milliy bank"ning yetakchiligi

boshqa banklarning investitsion salohiyati, tajribasi va portfel diversifikatsiyasi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Bu esa bozor mexanizmlarini rivojlantirish, banklar o'rtasida raqobatni kuchaytirish zarurligini taqozo etadi.

Ushbu jarayonlar banklarning investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi rolini yanada kuchaytirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan bir qator yo'nalishlarni belgilab beradi. Jumladan, aktivlar sifati va tarkibini yaxshilash, rentabellik ko'rsatkichlarini mustahkamlash, aktivlar aylanishini tezlashtirish hamda portfel diversifikatsiyasini kengaytirish banklarning investitsion faoliyat samaradorligini oshirishda asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, aktivlar o'sish sur'atlarining yuqoriligi banklarning kelgusida yanada ko'proq yirik va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkonini oshiradi.

Umuman olganda, bank tizimi transformatsiyasining jadallashuvi investitsion kreditlash amaliyotini modernizatsiya qilish, zamonaviy moliyaviy texnologiyalarni joriy etish va real sektorni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish uchun mustahkam asos yaratmoqda. Kelgusida banklarda resurslarni boshqarish, risklarni oldindan aniqlash va minimallashtirish, investitsion loyihalar samaradorligini ilmiy asosda baholash banklarning investitsion rolini va iqtisodiyot rivojlanishiga qo'shadigan hissasini sezilarli oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi O'RQ-580-sonli "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni.
2. Mishkin F. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. – New York: Pearson, 2020.
3. Rose P. *Commercial Bank Management*. – New York: McGraw-Hill, 2019.
4. Sachs J.D. *Economic Development in the Era of Global Transformation*. – Cambridge University Press, 2021.
5. Rodrik D. *Structural Change and Economic Growth*. – Oxford University Press, 2020.
6. Levine R. *Finance, Innovation and Long-Term Investment*. – London: Routledge, 2021.
7. Аликаева М.В., Асланова Л.О. ва б. *Стратегическое развитие малого бизнеса и формы*

поддержки индивидуального предпринимательства. Монография. – Нижний Новгород: Издательство НОО Профессиональная наука, 2018. – С. 68. // www.scipro.ru

8. Князев П.П., Клименко М.Н., Моторнюк Д.В. БАНКОВСКИЕ ПРОДУКТЫ И УСЛУГИ: ИНВЕСТИЦИОННОЕ КРЕДИТОВАНИЕ. Учебное пособие. – М.: Евроазиатская научно-промышленная палата, 2019. – С. 38.

9. А.Е. Яблонская Формирование эффективного механизма долгосрочного банковского кредитования для обеспечения устойчивого роста российской экономики. Автореферат диссертации на соис. уч. степ. к.э.н. – Орел: Белгородский университет кооперации, экономики и права, 2013.

10. Шабельникова Е.Г. Управление рисками банковского инвестиционного кредитования. Диссертация на соис. уч. степ. к.э.н. – Ростов-на-Дону: Ростовский государственный экономический университет, 2014. – С. 58.

11. Яблонская А.Е. Формирование эффективного механизма долгосрочного банковского кредитования для обеспечения устойчивого роста российской экономики. Автореферат диссертации на соис. уч. степ. к.э.н. – Орел: Белгородский университет кооперации, экономики и права, 2013. – С. 10.